

**ERON VA TURKIYA HARBIY-SIYOSIY SALOHIYATINING
QIYOSIY TAHLILI**

Ochilxonov Abdulazizxon Hoshimxon o'g'li

Toshkent amaliy fanlar universiteti xodimi

E-mail: abdulazizxonhoshimxonovich@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Eron va Turkiyaning harbiy-siyosiy salohiyati qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki davlatning geostrategik joylashuvi, harbiy doktrinalari, mudofaa sanoati va mintaqaviy ta'sir mexanizmlari keng yoritilgan. Eronning imkoniyatlari asosan asimmetrik urush strategiyasi, ballistik raketalar, dron texnologiyalari va proksi guruhlariga tayanishi bilan ajralib turadi. Turkiya esa NATO a'zoligi, zamonaviy qurolli kuchlari, yuqori harbiy byudjeti va global bozorda tan olingan dron ishlab chiqarishi bilan farqlanadi. Shuningdek, maqolada ikkala davlatning Kavkaz, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqdagi geosiyosiy raqobati hamda ularning xalqaro ittifoqlardagi o'rni tahlil etiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, Turkiya texnologik va institutsional jihatdan ustunlikka ega bo'lsa, Eron mintaqaviy ta'sirini proksi siyosat orqali kengaytirishga intilmoqda. Har ikkisi mintaqaviy geosiyosiy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy o'yinchilar sifatida maydonga chiqmoqda

Kalit so'zlar. Eron, Turkiya, geosiyosat, xavfsizlik, mintaq, armiyalar, dron, yadro, proksi, NATO

KIRISH

Eron va Turkiya Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yaqin Sharq mintaqalarida o'z geosiyosiy ta'sir doirasiga ega bo'lgan eng yirik mintaqaviy kuchlardan hisoblanadi. Har ikkisi ham tarixiy meros, geografik joylashuv, tabiiy resurslar, demografik salohiyat va harbiy-siyosiy imkoniyatlar nuqtai nazaridan muhim ustunliklarga ega bo'lsa-da, ularning strategik yo'nalishlari, harbiy doktrinalari va tashqi siyosiy ustuvorliklari sezilarli darajada farq qiladi. Eronning harbiy-siyosiy salohiyati, avvalo, asimmetrik urush strategiyasi va raketa-texnologik

imkoniyatlariga tayanadi. 1979-yildan keyingi izolyatsiya va sanksiyalar sharoitida Eron o'zining mustaqil mudofaa sanoatini rivojlantirdi, ayniqsa ballistik raketalar, dron texnologiyalari va havo mudofaasi tizimlarida katta yutuqlarga erishdi. Bu unga mintaqada “tenglashtiruvchi kuch” sifatida harakat qilish, harbiy jihatdan raqiblarining ustun konvensional imkoniyatlarini neytrallash imkonini beradi. Bundan tashqari, Eron “mintaqaviy proksi-siyosat” orqali Livan “Hizbulloh”i, Yamandagi husiylar va Iroq hamda Suriya hududlaridagi shia harakatlarini qo'llab-quvvatlab, o'z ta'sir doirasini kengaytiradi.

Turkiya esa NATO a'zosi sifatida zamonaviy harbiy infratuzilma, ilg'or havo kuchlari va tank bo'linmalari, shuningdek, o'zining tezkor harbiy harakat qobiliyati bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda Anqara milliy mudofaa sanoatini jadal rivojlantirib, “Bayraktar TB2” kabi dronlar bilan global bozorda raqobatbardosh ishlab chiqaruvchiga aylandi. Turkiya armiyasi NATO standartlariga mos tayyorgarlik, qo'mondonlik tizimi va logistika imkoniyatlari bilan Eron armiyasidan ustun turadi. Shu bilan birga, Turkiya Suriyada “Furot qalqoni”, “Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulog'i”, “Panja qilich” kabi bir qator yirik harbiy operatsiyalarni amalga oshirdi. Harbiy strategiya bo'yicha mutaxassis Metin Go'rjan ta'kidlaganidek, Turkiya tomonidan amalga oshirilgan ushbu harbiy operatsiyalar mamlakat harbiy doktrinasining muhim elementi sifatida qaraladi. Uning fikriga ko'ra, bu amaliyotlarning asosiy maqsadi chegaraoldi hududlarda doimiy xavfsizlik zonasini shakllantirish hamda kurd qurolli tuzilmalarining harbiy ta'minot va logistika yo'llarini izolyatsiya qilishdan iboratdir. Ushbu yondashuv nafaqat qisqa muddatli harbiy ustunlikni ta'minlash, balki uzoq muddatli strategik xavfsizlikni kafolatlash, potensial tahdidlarning mamlakat hududiga kirib kelishini oldindan to'sish vazifasini ham bajaradi.[1]

ASOSIY QISM

\Eron va Turkiya harbiy-siyosiy salohiyatini tahlil qilishda birinchi navbatda ularning geostrategik joylashuvi va ittifoqiy arxitekturasini ko'rib chiqish muhimdir. Geostrategik joylashuv nuqtayi nazaridan, Eron Fors ko'rfazi va Ummon ko'rfazi bo'yida joylashib, Ormuz bo'g'ozini nazorat qilish imkoniyatiga

ega. Bu yo'lak orqali jahon neft eksportining qariyb uchdan bir qismi o'tadi, shuning uchun Eronning harbiy-siyosiy salohiyati nafaqat mintaqaviy, balki global energetika xavfsizligi bilan ham chambarchas bog'liq. Shuningdek, Eronning shimoliy chegaralari Kaspiy dengizi orqali Markaziy Osiyo bilan, g'arbiy chegaralari esa Iroq orqali Yaqin Sharq bilan tutashadi, bu esa unga bir vaqtning o'zida bir necha geosiyosiy makonda ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

Turkiya esa Yevropa va Osiyo chorrahasida, Qora dengiz, Egey dengizi va O'rta yer dengizi bo'yida joylashgan bo'lib, Bosfor va Dardanel bo'g'ozlarini nazorat qiladi. Ushbu strategik suv yo'llari NATO, Yevropa Ittifoqi va Qora dengiz mintaqasi xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Turkiyaning janubiy chegarasi Yaqin Sharqdagi mojaroli hududlar - Suriya va Iroq bilan tutashgani sababli, Anqara harbiy-siyosiy jihatdan "front chizig'i" mamlakati sifatida doimiy tayyorgarlik holatida bo'lishga majbur. Ittifoqiy arxitektura jihatidan, Turkiya 1952-yildan buyon NATO a'zosi sifatida Yevro-Atlantika xavfsizlik tizimining bir qismi bo'lib, harbiy doktrinasi NATO standartlariga moslashgan. Bu unga ilg'or harbiy texnologiyalar, qo'mondonlik tizimlari va ittifoqiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini beradi.

Eron esa, aksincha, xalqaro sanksiyalar, G'arb bilan uzoq yillik ziddiyatlar va mustaqil strategiya yuritish siyosati sababli rasmiy harbiy ittifoqlardan yiroq. Shunga qaramay Eron 2023-yilda SHHT ga to'liq a'zo bo'ldi. [2] 2024 yil 1-yanvardan BRICS tarkibiga kirib, G'arbdan tashqari bloklar bilan integratsiyani chuqurlashtirdi. [3] Harbiy-siyosiy salohiyat nuqtai nazaridan, Turkiya va Eron har tomonlama kuchli davlatlar hisoblanadi, ammo ularning afzalliklari turlicha.

Ko'rsatkichlar	Turkiya	Eron Islom Respublikasi
Faol harbiy xizmatchilar	355 200	610 000
Zaxira kuchlar	378 700	350 000
Harbiy byudjet (2025)	47,00 mlrd \$	15,45 mlrd \$
Tanklar	2 238	1 713
Jangovar samolyotlar	201	188

Yaqin Sharq bo'yicha mutaxassislar Amin Saikal va David Vestenskovning Eronning milliy xavfsizligi va operatsion qobiliyati nomli maqolasida "Eronning harbiy strategiyasi birinchi navbatda mudofaaga qaratilgan bo'lib, asosiy e'tibor rejimning omon qolishi va milliy hududiy yaxlitligini ta'minlashga hamda ushbu maqsadlarni qo'llab-quvvatlash uchun mintaqaviy xavfsizlik tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan. Tarixdan ma'lumki, ikki dominant strategik tashvish AQSh va Isroil bo'lib kelgan, so'nggi paytlarda uning arab qo'shnilari, xususan Saudiya Arabistoni bilan mintaqadagi ta'sir uchun raqobat uchinchi ustuvor yo'nalish sifatida paydo bo'lganini ta'kidlashadi.[4] 2025-yilgi Global Firepower (GFP) xalqaro reytinglari ma'lumotlariga ko'ra, Turkiya va Eron Yaqin Sharq mintaqasida

harbiy-siyosiy kuchlar muvozanatida muhim o'rin tutadi. Umumjahon miqyosida Turkiya harbiy salohiyat bo'yicha 9-o'rinni, Eron esa 16-o'rinni egallagan bo'lib, bu ko'rsatkichlar ularning global darajadagi strategik pozitsiyalarini yaqqol aks ettiradi [5]. Mintaqaviy kesimda esa, Yaqin Sharq mamlakatlari orasida Turkiya 1-o'rinda, Eron esa 3-o'rinda qayd etilgan. Turkiya NATO a'zosi sifatida ilg'or harbiy texnologiyalarga, keng ko'lamli havo-kosmik salohiyatga va yuqori darajada tayyorgarlikka ega professional armiyaga tayanadi. Bundan tashqari, 2020-yillardan boshlab mudofaa sanoatini milliyashtirish siyosati Anqara qurolli kuchlarining avtonomligini oshirdi. Eron esa rasmiy harbiy ittifoqlarga qo'shilmagan bo'lsa-da, katta sonli quruqlik kuchlari, ballistik raketa dasturi va mintaqadagi proksi-kuchlarni qo'llash strategiyasi orqali o'zining harbiy-siyosiy ta'sir doirasini kengaytirgan.

Turkiya va Eron dron texnologiyalari hamda havo mudofaasi sohalarida mintaqaviy va global miqyosda raqobatbardosh pozitsiyani egallagan. Turkiya harbiy-sanoat kompleksida ishlab chiqilgan "Baykar Bayraktar TB2" jangovar dronlari nafaqat milliy mudofaa strategiyasining asosiy komponentiga aylangan, balki eksport bozorida ham yuqori talabga ega bo'lib, Ukraina, Ozarbayjon va qator Afrika hamda Osiyo mamlakatlarida muvaffaqiyatli qo'llanmoqda. [6] Eron esa asimmetrik urush taktikalariga moslashtirilgan "Shahed-131/136" kabi kamikadze

tipidagi dronlar ishlab chiqarishda yetakchi bo'lib, ularni mintaqadagi proksi-kuchlar va ittifoqchilar orqali keng miqyosda sinovdan o'tkazmoqda.

2024-yil oxiriga kelib, Xalqaro atom energiyasi agentligi (IAEA) hisobotlariga ko'ra, Eron boyitilgan uran ishlab chiqarish bo'yicha rekord darajaga yetdi 60% darajada boyitilgan taxminan 408 kilogramm uran zaxirasiga ega bo'ldi.[7] Shunga qaramay, Eron hozirgi kungacha sinovdan o'tgan yadro quroliga ega emas va rasmiy ravishda yadroviy dasturini "faqat tinch maqsadlarda" olib borayotganini bildiradi. Biroq, AQSh hamda Isroil mudofaa tuzilmalari bu salohiyatni "potensial yadro qurollanish chegarasiga yaqinlashish" sifatida baholamoqda. Turkiya esa mustaqil yadro dasturiga ega emas va boyitilgan uran ishlab chiqarmaydi. Biroq NATO yadroviy taqsimlash siyosati doirasida mamlakat hududida, xususan, Adana viloyatidagi Injirlik aviabazasida AQShning B61 tipidagi taktika yadroviy bombalari saqlanadi.[8] Bu qurollar Turkiyaning yadroviy tiyib turish strategiyasida bevosita harbiy nazorat ostida bo'lmasa-da, NATOning kollektiv mudofaa doirasida Anqaraga muhim strategik o'rin beradi. Mintaqada raqobat holatida bo'lgan bu ikki davlatning mintaqaviy siyosiy ta'sir kurashi Yaqin Sharqdan Kavkaz va Markaziy Osiyogacha cho'zilgan murakkab geosiyosiy "ta'sir chizig'i"ni hosil qilmoqda.

Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqalarida ikki davlatning raqobati geoiqtisodiy va geokultural o'lchamda ham davom etmoqda. Turkiya "Turkiy davlatlar tashkiloti" (TDT) platformasi orqali Ozarbayjon hamda Markaziy Osiyo respublikalari bilan siyosiy-madaniy integratsiyani chuqurlashtirib, yirik transport-logistika loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Xususan, Zangazur yo'lagi loyihasi Ankara uchun Kaspiy dengizi orqali Markaziy Osiyo bozorlariga qisqa yo'l ochishi bilan strategik ahamiyat kasb etadi. Eron esa o'z navbatida, Chabohar porti infratuzilmasini rivojlantirish va Sharqiy-G'arbiy tranzit yo'llari orqali Hind okeani va Markaziy Osiyo o'rtasida muhim logistika markaziga aylanishni maqsad qilgan.

XULOSA. Harbiy-siyosiy salohiyat nuqtayi nazaridan, Turkiya va Eronning o'xshash jihatlari bilan bir qatorda keskin farqlari mavjud. Turkiya

qurolli kuchlari NATO standartlari asosida shakllangan bo'lib, harbiy texnologiyalarni modernizatsiya qilishda AQSh va Yevropa davlatlari bilan hamkorlikdan foyda ko'radi. 2025-yilga kelib, Turkiya mudofaa byudjeti qariyb 40 mlrd dollarni tashkil etdi va bu raqam NATOdagi eng katta beshinchi ko'rsatkich sifatida qayd etilgan. Shuningdek, Anqara dron texnologiyalarida dunyodagi yetakchi ishlab chiqaruvchilardan biriga aylandi, Bayraktar TB2 va Anka kabi uchuvchisiz apparatlar uning harbiy ustunligini ta'minlamoqda. Bu Turkiyaga nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda harbiy eksport bozorida o'z ta'sirini kuchaytirish imkonini berdi. Siyosiy jihatdan esa, Turkiya NATO a'zosi sifatida kollektiv mudofaa mexanizmlaridan foydalanadi va BMT hamda Yevropa Kengashi kabi ko'p tomonlama maydonlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Shu jihatdan, uning siyosiy salohiyati xalqaro integratsiya bilan mustahkamlangan.

Eronning harbiy-siyosiy qudrati esa boshqa o'lchamga ega. Birinchidan, Eron yadroviy dasturi tufayli global siyosiy muhokamalarning doimiy markazida turadi. Garchi xalqaro sanksiyalar uni iqtisodiy va texnologik jihatdan chegaralab qo'ygan bo'lsa-da, Tehronning strategik ustunligi "asimmetrik urush" konsepsiyasi asosida qurilgan. Bu, xususan, Islom inqilobi gvardiyasi (IRGC) va uning "Quds kuchlari" orqali ko'rinadi. Livandagi "Hizbulloh", Yaman husiylari va Iroqdagi shia guruhlariga berilayotgan harbiy va moliyaviy yordam Eronni Yaqin Sharqdagi "proksi" urushlarining markaziy o'yinchisiga aylantiradi. Shu boisdan Eronning ta'sir doirasi keng, biroq u ko'proq norasmiy harbiy tuzilmalar va ideologik ittifoqlarga asoslanadi.

Mintaqaviy muvozanatda Turkiya Kavkaz va Suriyada ta'sirini oshirib borayotgan bo'lsa, Eron Suriyadagi Assad rejimining ag'darilishi hamda Livandagi Hizbullohnning iqtisodiy qiyinchiliklari tufayli o'z pozitsiyasini qayta tiklashga urinmoqda. Biroq, Eronning "qarshilik o'qi" (axis of resistance) strategiyasi unga hanuz mintaqada geosiyosiy ustunlik imkonini beradi. Ichki siyosatda ham farqlar ravshan. Turkiyada so'nggi yillarda avtoritar boshqaruv kuchayib, iqtisodiy inqiroz va inflyatsiya jamiyatda norozilikni kuchaytirgan. Eron esa qat'iy teokratik tuzum, diniy elita nazorati va muntazam xalq noroziliklari

fonida ichki barqarorlikni saqlashda qiyin vaziyatda qolmoqda. Shu sababdan har ikkala davlatning tashqi siyosiy salohiyati bevosita ichki siyosiy muammolar bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, Turkiya zamonaviy qurolli kuchlar, xalqaro ittifoqlar va dron texnologiyalari bilan ajralib tursa, Eron yadroviy dastur, harbiy militsiyalar va proksi guruhlar orqali o'z ta'sirini kuchaytiradi. Ularning harbiy-siyosiy salohiyati turlicha asoslarda shakllangan bo'lsa-da, har ikki davlat mintaqaviy geosiyosiy o'yinlarda muhim kuch sifatida maydonga chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gürçan, M., What Do Turkey's Cross-Border Operations Tell Us About Its Military Doctrine?, Al-Monitor, 2022
2. Riyaz ul Khaliq and Aamir Latif. Iran becomes full member of Shanghai Cooperation Organization. <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/iran-becomes-full-member-of-shanghai-cooperation-organization/2936909>
3. Shahir Shahidsaless. The Implications of Iran's Inclusion in BRICS. <https://www.stimson.org/2023/the-implications-of-irans-inclusion-in-brics>
4. Amin Saikal, David Vestenskov. Iran's National Security and Operational Capability. 2020. p-4. <https://sjms.nu/articles/10.31374/sjms.29>
5. 2025 Turkiye Military Strength. https://www.globalfirepower.com/country-military-strength-detail.php?country_id=turkey
6. We Are Baykar. <https://baykartech.com/en/about/>
7. Director General Briefs Board on Iran Developments, Ukraine Support, Technical Assistance and More. 2024. <https://www.iaea.org/newscenter/news/director-general-briefs-board-on-iran-developments-ukraine-support-technical-assistance-and-more>
8. Hans M. Kristensen, Matt Korda, Eliana Johns, Mackenzie Knight-Boyle. United States nuclear weapons, 2025. <https://thebulletin.org/premium/2025-01/united-states-nuclear-weapons-2025>